

CHOSON DAVRIDA KOREYA

Amonova Marjona Bahodir qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo`nalishi 2.4-TAR-22 talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10938527>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Choson sulolasi davrida Koreyadagi madaniyat haqida so'z boradi. Chosonda davlat boshqaruvi va geografiyaga oid asarlar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Van, Li Son Ge, Choson, Iychjonbu, Koryo, Li sulolasi, geografik xarita, hangl, kartografiya, dekorativ rassomchilik, animalistik rassomchilik, peyzaj, sarim.

KOREA DURING THE CHOSON PERIOD

Abstract. This article is about culture in Korea during the Choson Dynasty. In Choson, information is given about works related to state administration and geography.

Key words: Wang, Lee Song Ge, Choson, Ichjeongbu, Goryeo, Lee dynasty, geographical map, Hangul, cartography, decorative painting, animalistic painting, landscape, silk.

КОРЕЯ В ПЕРИОД ЧОСОНА

Аннотация. Данная статья посвящена культуре Кореи времен династии Чосон. В Чосоне даются сведения о работах, связанных с государственным управлением и географией.

Ключевые слова: Ван, Ли Сон Гэ, Чосон, Иччонбу, Корё, династия Ли, географическая карта, Хангыль, картография, декоративная живопись, анималистическая живопись, пейзаж, шелк.

Li Son Ge hokimiyatga kelgandan so'ng, koreys davlatiga Choson nomini berdi va mamlakat poytaxtini Kegyondan Xanan (Seul)ga ko'chirdi. Li Son Ge hokimiyatga kelgan vaqtda keksayib qolgan edi. Shu bois taxt uchun uning o'g'illari orasida kelishmovchiliklar bo'lib turdi.

Uning katta o'g'li Li Ban Von yoki van Txejon (1401-1418) Choson hukmdori bo'ldi.

Yangi sulolaga asos solinishi bilan Koryoning zaiflashib qolgan markazlashgan hokimiyat boshqaruvini mustahkamlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Muxolifatni bostirish maqsadida avval van Konyan va uning o'g'illari hamda eski sulola tarafdorlari qatl etildi.

Amaldorlarning avvalgi mansablari bekor qilindi. Faqatgina vanning eng yaqin qarindoshlarigina mansabga erishish huquqiga ega bo'ldilar qolganlar, xususan "ta'sirli oilalar" umum davlat miqyosida 18-darajadagi lavozim larnigina egallashi mumkin edi. Davlat boshqaruvi faoliyatini yaxshilash uchun bir qator hukumat tashkilotlari tarqatib yuborildi, ba'zi davlat tuzilmalari qisqartirildi.

Van tasarrufida bosh vazir va uning ikki o'rinbosaridan iborat oliy hukumat organi - Davlat yig'ini (Iychjonbu) tashkil qilindi. Barcha davlat tashkilotlari 6 vazirlik bo'yicha taqsimlandi: 1) amaldorlar bo'yicha; 2) moliya; 3) mudofaa; 4) tantanalar; 5) adliya; 6) hunarm andchilik va jamoat ishlari, Vazirliklar bilan birga davlat boshqaruvida 3 ta nazorat devonxona "sam sa" (nazorat) tuzildi. Birinchi devonxona vanning noto'g'ri harakatlari va qarorlarini tanqid qilgan, ikkinchisi amaldorlar faoliyatini nazorat qilgan, uchinchisi esa vanning ilmiy faoliyatiga javob bergan va konfutsiylik ruhida rasmiy tarixni yozish uchun materiallar yig'ish bilan shug'ullangan. Islohotlar

tufayli samarali davlat boshqaruv devonxonasi shakillangan. Bu borada shuni aytish kerakki, mamlakat poytaxtida amaldorlar 500-600 kishini tashkil qilgan.

Li sulolasi davrida mamlakat aholisi 3 milliondan 11 millionga ko'paygan. Markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha shaxsiy harbiy guruhlar tarqatib yuborilgan.

Umumiy harbiy majburiyat asosiga qurilgan doimiy armiya markaziy va viloyat qo'shiniariga bo'lingan. Qo'shirlarni saqlash zaxiradagilar zimmasiga tushgan bo'lib, ularning asosini dehqonlar tashkil etgan. Davlat hududini himoya qilish maqsadida mamlakat bo'ylab gulxanli signallar va pochta xizmati tizimi joriy etilgan. Mamlakat 8 ta ma'muriy bo'linmaga bo'lingan bo'lib, ushbu bo'linmalar, o'z navbatida, okruglar, volostlar, uyezdlar va prefekturalarga bo'lingan. Barcha rahbar amaldorlar poytaxtdan tayinlangan. Rahbar va mahalliy amaldorlar orasida poraxo'rlikning hamda ajralib ketishlarning oldini olish maqsadida rotatsiya tizimi joriy etilgan: ya'ni amaldorlar vaqt-vaqti bilan boshqarayotgan hududlardan boshqasiga o'tkazib turilgan. Mansabdor shaxslar doimiy inspeksion nazoratda bo'lib, ularning faoliyati rasmiy va yashirin taftishdan o'tkazilgan. Poytaxtda maxsus do'mbira o'rnatilgan. Uni chalish orqali amaldorlarning faoliyatini suiste'mol qilishi yoki ularning nojo'ya ishlari haqida ma'lumot berilgan. Eng quyi darajadagi qishloq uyushmalari xanyak - mahalliy boshqaruv shakli bo'lgan.

Uning faoliyatiga konfutsiylik ta'limoti asosidagi tartib-intizomni saqlash, mayda o'g'riliklar uchun jazo belgilash, mablag' ajratish, maktablar tashkil qilish, jamoat ishlari va marosimlarning bajarilishini nazorat qilish kirgan.

Mamlakatda aholi ko'payishi va savdo-sotiq yaxshilanishi bilan madaniy, ijtimoiy sohaga e'tibor berila boshlandi. 1450 yili "Koreyaning harbiy sharhi" nomli kitob chop etilgan. 1485 yilda - "Koreyaning umumiy sharhi" e'lon qilingan. Maxsus olimlardan tashkil topgan guruh 1451 yili 139 kitobdan iborat "Koryo sa" ("Koryo tarixi") ni yozgan. 1454 yili van Tanjon davrida "Yilnoma yoki Sejon davrining asl yozuvlari" chop etilgan bo'lib, bu kitobga van buyruqlari, rasmiy ma'ruzalar, tekshiruvchilar hisobotlari kabi rasmiy hujjatlar kiritilgan. Chosonning keyingi barcha tarixi davomida aynan shunga o'xshash yilnomalar tuzish an'anaga aylangan. 1485 yil "Kyonguk tejon" ("Davlat boshqaruvi uchun buyuk tuzuklar") - mamlakatning birinchi yuridik kodeksi chop etilgan. Kartografiya ishlari ham keng yoyilgan bo'lib, ko'plab yangi geografiyaga oidishlar chop etilgan. 1432 yili "Sakkiz viloyatning geografik tavsifi", 1455 yili "Geografik tavsiflar va xaritalar", 1463 yili "Koreya xaritasi", 1481 yili "Koreya yerlari va uning diqqatga sazovor yodgorliklari", 1530 yilda 55 kitobdan iborat "Koreya yerlari va uning diqqatga sazovor yodgorliklariga qo'shim cha tavsif" nomli geografik kitoblar chop etilgan bo'lib, uning yangi nashri 1609 yili e'lon qilingan. 1493 yili 9 jilddan iborat "Musiqqa xaqidagi fan asoslari" nomli musiqiy ensiklopediya e'lon qilingan.

Aynan bu davrdagi muhim yutuqlardan biri 1443 yil qirol Sejon tomonidan amalga kiritilgan koreys alifbosi ("xunm in chonim")ga bag'ishlangan. Alifboni yaratishga turtki bo'lgan narsa, Koreyslar xitoy iyerogliflaridan foydalanishgan, gapirishda oson, ammo yozishda qiynalishgan. Shuning uchun qirol Sejon koreyslarga oson va qulay bo'lgan alifboni yaratdi.

Koreys alifbosi "Hangl" deb atalib, unda 40 ta tovush mavjud. "Hangl" alifbosi odamning harakatlanishiga qarab yaratilgan bo'lib, har bir harfning o'z ma'nosi alohida ahamiyat kasb etadi. "To'g'ri tovushlar haqida xalqqa nasihat" nomli kitobning chop etilishi bilan, xalq yana ham alifbodan foydalanishi osonlashdi. Xitoy iyerogliflaridan farqli tarzda yangi alifbo harflardan

tuzilgan bo'lib, bu iyerogliflar qo'llanishda oson bo'lgan bu esa, shubhasiz oddiy avom xalqning savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq, yuqori martabali shaxslar va amaldorlar uzoq muddat Xitoy yozuvidan foydalanishgan. She'riyatda kasa (katta she'r) va sichjo (Koryo davrida paydo bo'lgan uchbo'g'inlilik) janrlari rivojlangan. Unda tarixiy voqealar tasviri, taqdir haqidagi falsafiy tasavvurlar, fuqarolar lirikasi aks etgan. Folklor, novellalar va satirik proza ham da povestlarning badiiy ishloviga asoslangan nasr paydo bo'ldi. Sahna san'atida niqob teatri va qo'g'irchoq teatri paydo bo'lib, unda o'tkir satira namoyish qilingan. Rassomchilik dekorativ rassomchilik, peyzaj, portret va animalistik rassomchilikka bo'lingan. Agar avvallari me'morchilikda ibodatxona qurilishiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, XV asrdan boshlab ularning o'rnini xalq arxitekturasi, o'zining hashamati bilan ajralib turadigan vanlar saroylari egallaydi.

Taxtga Li sulolasi kelishi bilan neokonfutsiylik yangi davlat g'oyasiga aylandi.

Buddaviylik barcha falokatlarining sababchisi deb e'lon qilindi. Hal qilinmagan muammolar o'z yechimini topa boshladi. Konfutsiylik mavqei kuchayishishi bilan, ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Seulda va viloyatlarda konfutsiylik maktablari ochilib, davlat kengashi bilan birga davlat maslahatchilari Palatasi ham joriy etilgan va unga konfutsiy ta'limoti olimlari kirgan. XVI asrda konfutsiy olimlarga atab ibodatxona – savonlar tashkil qilingan. Vaqt o'tib bu ibodatxonalar siyosiy markazga aylangan. Barcha qirolga itoat etishi bilan bog'liq konfutsiylik me'yorlari mustahkamlandi, bu davlatning markazlashishi uchun asosiy sabab edi. Boshqa tomondan xatolarni e'tirof etilishi, ularni tuzatish yo'li bilan kamolotga erishish qirollik o'lasiga ham joriy qilinishi, davlat boshlig'I tomonidan yaqinlari va olimlarni ro'yxatga kiritib, boshqaruvda yangiliklar joriy etilishiga sabab bo'ldi. Koreya tarixida qirollik boshqaruvini takomillashtirishda olimlar va amaldorlar o'zlarining takliflarini bildirgan. Choson davrida vaqt o'tishi bilan islohot g'oyasini ilgari surgan sarimlar yetakchilik qilgan. Ammo buddaviylikni tiklamoqchi bo'lgan van CHunjon davrida sarimlar islohotlar o'tkazishga harakat qila boshlaydilar. Jumladan davlat imtihonlari orqali amaldorlarni tayinlash-iqtidorli amaldorlarning ko'payishiga olib keldi. Shunday qilib Koreyada neokonfutsiylikga doir qator maktab va yo'nalishlar ochildi. Ular o'z xatolarini tan olishlari orqali adolarni ta'minlab, davlat rivojlanishi uchun hissa qo'shdilar.

1592-yilda Yaponiya qo'shinlari Koreyaga bostirib kirdi va dastlab Seulni, so'ng Pxenyanni egalladi. Ular oddiy xalqqa nisbatan juda ham shavqatsiz bo'ladi. U yerda 30 000 koreysning quloq va burunlari ko'milgan. Yapon bosqinchilariga nisbatan xalq partizan guruhlarini tuzildi. Xalq qo'shinlariga Li Sun Sin koreys floti bergan yordam dalda bo'ldi. 50 minglik yordamga kelgan Xitoy qo'shinlari yordamida yaponlarga qarshi kurashni yengillashtirdi. 1593-yilda Xitoy va Koreyaning birlashgan qo'shini Pxenyani va Seulni ozod qildi. 1627-yilda esa manchjurlar Koreyaga bostirib kirib, ko'p shaharlarni taladi. 1637-yildagi shartnomaga binoan, Koreya qirol o'zini manchjurlarning vassal deb tan oladi. Chet davlatlar hujumi natijasida qirol Koreyani yopiq davlat deb e'lon qildi. Chet ellik fuqarolar bilan har qanday aloqalar uchun o'lim jazosi belgilandi. Manchjurlarga to'lanadigan o'lpon xonavayron aholiga yuk bo'ldi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar vayron bo'lgan bir vaqtda Koreyaning iqtisodi ham vayron bo'lib borardi.

Inqirozlar natijasida qirol islohotlar o'tkazishga mahbur bo'ldi. Feodal munosabatlarning to'siq bo'lishiga qaramay, mahalliy bozorlar shakllanib, yirik yarmarka va savdo markazlari paydo bo'ldi. Xitoy bilan savdo aloqalari rivojlandi. Davlat yuksak marralarni egalladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Koreyslar kuchli va matonatli xalq bo‘lib, ular asrlar davomida o‘zlarining irodasini ko‘rsatib keldi. Sulolalar ko‘p almashishi natijasida, davlat zaiflashib qaram, qoloq, vassal davlatga aylanib qoldi. Li Son Ge kabi kuchli bir shaxs hokimiyatga kelishi natijasida davlat gullab-yashnadi. Qirol Sejon davrida madaniyat, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarga alohida e‘tibor qaratib, davlatni o‘z hokimiyati ostida birlashtirdi. Davlat va xalq uchun jonini fido qildi. Xalq mustaqillik uchun kurashib, davlatni kelgindilardan tozaladi, islohotlar o‘tkazish orqali davlat yangidan-yangi natijalarni kashf etdi.

REFERENCES

1. S.Valeriy Xan."Koreya tarixi"-T-"Baktria press"-2013.68-75 betlar.
2. 2.Hasanboy O‘rinov. Samarqand Davlat Universiteti magistiri “So‘nggi imperiya davrida Koreya yoxud davlat boshqaruvida konfutsiylik o‘rni” maqolasidan. <https://www.samdu.uz/uz/news/32793>
3. Xulbertning Koreya tarixi / ed. Klarens Norvud Uims tomonidan. London: Routledge & Kegan Paul, 1962. 127, VII, 427 pp.
4. Xulbert, Gomer Bezaleel (1863-1949). Koreyadagi missioner va o‘qituvchi // Xristian missiyalarining biografik lug‘ati. URL: <https://www.bu.edu/missiology/missionary-biography/gh/hulbert-homer-bezaleel-1863-1949/> (kirish 30/08/2022). – Matn: elektron.
5. Kim, Se-Jong. Kam baholangan qahramon Gomer Xulbertga ishtiyoq // The Korean Times. 2020-yil, 2-yanvar. URL:
6. https://www.koreatimes.co.kr/www/nation/2020/12/181_281155.html (kirish sanasi: 30.08.2022). – Matn: elektron.
7. Муродов, Х. (2022). MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNING RIVOJLANISHI VA UNING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 1(4), 13-13.
8. Salimovich, M. H. (2022). Tourism Development in Bukhara During the 1990s and Its Problems. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 298-302.
9. Муродов, Х. (2022, April). СОСТОЯНИЕ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА НАКАНУНЕ НЕЗАВИСИМОСТИ. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 140-143).
10. Murodov, H. S. (2023). MARKAZIY OSIYODA RIVOJLANISHNING YANGI TENDENTSIYALARI: QOZOG‘ISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA NAMKORLIK MASALALARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 340-345.
11. Муродов, Х. С. (2023). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИ (ЎЗБЕКИСТОН МИСОЛИДА). *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 84-98.
12. Салимович, М. Х. (2023). REVIEW OF THE HISTORY OF TOURISM DEVELOPMENT IN THE REGION OF UZBEKISTAN. *SAMARALI TA‘LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 70-78.

13. [SANATORIYA–KURORT MUASSASALARI FAOLIYATINING BUXORO TURIZMI RIVOJIDA ORNI](#) MH Salimovich SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI 1 (6), 199-204
14. [The Role of the Cultural Sector in the Development of Bukhara Tourism](#) MH Salimovich
15. *Miasto Przyszłości* 45, 729-735
16. Баходировна , Х. Ш. . (2024). Из Истории Изучения Пословиц И Поговорок. *Miasto Przyszłości*, 46, 513–520. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2892>
17. Хасанова, Ш. (2024). <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 425–435. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>
18. Xasanova, S. (2024). DIFFERENCE BETWEEN PROVERB AND SAYING. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 140–147. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10467418>
19. Xasanova, S., & murodova, D. (2023). REPRESENTATION OF THE SYSTEMIC RELATIONS OF RUSSIAN VOCABULARY IN PROVERBS AND SAYINGS. *Modern Science and Research*, 2(10), 276–280. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24346>
20. Xasanova, S. (2023). USING EXPRESSIVE VOCABULARY IN RUSSIAN PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(10), 403–408. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25248>
21. Hasanova, S. (2023). SYSTEM RELATIONS IN THE RUSSIAN LANGUAGE VOCABULARY. *Modern Science and Research*, 2(9), 72–74. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23900>
22. Баходировна, Х. Ш. (2023). Гендерная Лексика В Русском Языке. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 324–331. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/1505>
23. Хасанова Шахноза Баходировна. (2023). РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ СИСТЕМНЫХ ОТНОШЕНИЙ РУССКОЙ ЛЕКСИКИ В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ. *International journal of education, social science & humanities. finland academic research science publishers*, 11(4), 1220–1226. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7847968>
24. Xasanova, S. (2023). STRUCTURAL – SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(12), 619–625. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27109>
25. Nigmatova Gulnoz Khamidovna, & Khasanova Shakhnoza Bakhodirovna. (2022). System Relations in the Vocabulary of the Russian Language. *Global Scientific Review*, 3, 44–48. Retrieved from <https://www.scienticreview.com/index.php/gsr/article/view/22>
26. Shaxnoza Baxadirovna, X. (2023). PROVERBS IN THE LEXICOGRAPHICAL ASPECT. *International Journal of Formal Education*, 2(12), 429–437. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/1771>
27. Xasanova, S. (2024). DIFFERENCE BETWEEN PROVERB AND SAYING. *Modern Science and Research*, 3(1), 140–147. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27853>

28. Xasanova, S. (2024). NAMES OF PERSONS IN RUSSIAN, UZBEK PROVERBS AND SAYINGS. *Modern Science and Research*, 3(2), 425–435. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29049>
29. Хасанова, Ш. Б. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВЫРАЗИТЕЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЛЕКСИКИ В РУССКИХ ПОСЛОВИЦАХ. *Modern Science and Research*, 2(10), 403–408. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25248>
30. Sadullayev, U. (2024). THE NEIGHBORHOOD IS THE CRADLE OF VALUES. *Modern Science and Research*, 3(1), 607–613. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28343>
31. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722-727.
32. Sadullayev Umidjon Shokir O'g'li. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25–30. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05>
33. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 480–485. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142>
34. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
35. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722–727.
36. Shokir o'gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 554-559.
37. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 488-493.
38. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
39. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
40. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
41. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.
42. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLA TUSHUNCHASINING VUJUDGA KELISHI HAQIDA.

43. Shokir o'g'li, S. U. (2024). MIRZO SIROJ HAKIM VA UNING MEROSI.
44. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
45. Sadullayev, U. (2024). THE CONCEPT OF JADIDISM AND ITS ESSENCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 631–636. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30324>
46. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
47. Sadullayev U. (2024). MIRZA SIROJ HAKIM AND HIS LEGACY. *Modern Science and Research*, 3(2), 902–910. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29502>